“ODAM BO‘LISH QIYIN” ROMANIDA XARAKTER MASALASI

Nargizaxon Bannapova
Turon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi
abdulaziznargiza2@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda “Odam bo‘lish qiyin” romanida qahramonlar xarakterining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda inson ruhiyati, ma’naviy izlanishlar, axloqiy tanlov hamda ijtimoiy munosabatlarning xarakter shakllanishidagi o‘rni yoritiladi. Muallifning obraz yaratishdagi badiiy mahorati psixologizm, dialog, portret va badiiy detal vositasida tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *xarakter, obraz, psixologizm, badiiy detal, roman, xarakter talqini, ruhiy kechinma.*

Аннотация. *В данной статье анализируется художественная интерпретация характера персонажей в романе «Трудно быть человеком». Освещается роль человеческой психологии, духовных поисков, нравственного выбора и общественных отношений в формировании характера. Исследуется художественное мастерство автора в создании образов посредством психологизма, диалога, портретного изображения и художественной детали.*

Ключевые слова: *Характер, образ, психологизм, художественная деталь, роман, интерпретация характера, душевные переживания, художественное мастерство.*

Annotation. *This thesis analyzes the artistic interpretation of characters in the novel “It Is Hard to Be Human”. The role of human psychology, spiritual quests, moral choice, and social relations in character formation is highlighted in the work. The author’s artistic mastery in creating characters through psychologism, dialogue, portrait depiction and artistic detailis examined.*

Keywords: *Character, image, psychologism, artistic detail, novel, character interpretation, emotional experience, artistic mastery.*

Badiiy adabiyotda xarakter yaratish yozuvchi mahoratini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki asarning g‘oyaviy-estetik qimmati ko‘p jihatdan qahramonlarning individual xususiyatlari, ruhiy olami va hayotiy pozitsiyasining haqqoniy tasvirlanishiga bog‘liqdir. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekov o‘z asarlarida barcha personajlar xarakterini sinchkovlik va badiiy yuk bilan to‘yintirilgan alohida xususiyatlari ila yaratar edi. Ayniqsa, yozuvchining hamisha milliy qahramon va xarakterga e’tibor qaratishi barcha zamonlarda uning o‘ziga xos uslubi deya e’tirof etilib kelingan. “Odam bo‘lish

qiyin” romanida ham inson xarakteri masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Asarda qahramonlar ruhiyati, ularning hayotiy qarashlari, ichki ziddiyatlari hamda ma’naviy izlanishlari orqali inson tabiatining murakkab jihatlari ochib beriladi. Yozuvchi ijodi haqida taniqli adib Tohir Malik fikr bildirar ekan shunday yozgan edi: “Bunchalar shirinsan, hayot! O‘lmas Umarbekov asarlarini o‘qiy turib shunday deb hayqirging keladi. “Bunchalar beshafqatsan, hayot!”. O‘lmas Umarbekovning qalbida tug‘ilib, qog‘ozga ko‘chgan asarlarni o‘qib bo‘lgach, beixtiyor shunday deb yuborging keladi. “Bunchalar makkorsan, hayot!”

O‘lmas Umarbekovning hayot so‘qmoqlarida adashgan qahramonlari bilan tanishgach, “makr va muhabbatning ildizlari qayda ekan? ” deb o‘ylay boshlaysan. [1.5.].

Darhaqiqat, roman bosh qahramoni hisoblanmish Abdulla ham mana shunday adashganlardandir. Abdulla endigina hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan yosh yigit. Uning orzulari va maqsadlari, hayotdan, atrofidagi insonlardan kutuvlari bisyor. Shu o‘rinda uning qalbiga muhabbat taftini olib kirgan va unga nafaqat ishq to‘la yuragini balki, butun borlig‘ini hadya etgan, suyuklisiga butun vujudi ila ishonadigan ma’suma bir qiz Gulchehraning ham Abdullaga niyatlari bog‘langan. Biroq hayotning sinovchan shamoli yigit his-tuyg‘ularini yeldek uchirib, beg‘ubor qalbini nafs va manfaat urug‘lari bilan to‘ldiradi. U sevgi va ishonch imtixonida yengiladi. “Uning shuhratparast bo‘lib qolishiga, amalga intilishiga maktab payti orttirgan ruhiy jarohati sabab bo‘ldi. Otasi amal otidan tushgandan so‘ng unga nisbatan o‘qituvchilarning muomalasi o‘zgarishi, ayniqsa, otasining do‘sti Husan amakining ikkiyuzlamachiliklari Abdullani butunlay o‘zgartirib yuborgandi.

U bu dunyoda eng zo‘ri bo‘lsanggina seni hurmat qilishadi, senga tavallo etishadi degan fikrga borgan edi.U o‘z ustida tinmay ishlaydigan, eng zo‘ri bo‘lishga intiladigan bo‘lib qolgandi. Uning Gulchehraga bo‘lgan munosabatlari ham jiddiy edi, toki Sayyoraga uylanish mavzusi ko‘tarilmagungacha. Aynan shu nuqta, ya’ni va’dasiga vafo qilib, Gulchehraga uylangan holda qizni qiyin vaziyatdan qutqarish yoki Sayyoraga uylanib porloq kelajakni ta’minlashdan birini tanlash nuqtasi Abdullaning hayotidagi bir imtihon edi” [2. 228].

Muallif qahramon xarakterini ochishda dialog, ichki monolog, portret tasviri va psixologik detaldan unumli foydalanadi. Ayniqsa, qahramonlarning ruhiy kechinmalari ularning ichki dunyosini chuqurroq anglash imkonini beradi. Xarakterlarning turli hayotiy sinovlar oldidagi munosabati ularning ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Roman qahramonlari xarakterida insoniylik, mas’uliyat, vijdon, irodaviy mustahkamlik kabi fazilatlar bilan bir qatorda ikkilanish, ruhiy iztirob va ichki kurash holatlari ham kuzatiladi. Bu esa obrazlarning hayotiyligini kuchaytiradi hamda asarning badiiy ta’sirchanligini

oshiradi. Misol uchun Abdullaning Obid aka bilan bedana ovga borgan voqeani olaylik:

“Ko‘p o‘tmay bedazorning har chekkasida bedanalar sayray boshladi. Abdulla qaysi biriga quloq solishini bilmay qoldi. U yosh boladek sevinib, ariq bo‘y lab u yoqdan b u yoqqa yugur ar, qayoqda bedana balandroq sayrasa shu yoqqa o‘zini otardi.

- Boshlaymizmi? – so‘radi Obid aka.

- Birpas turing.

Abdulla, o‘lim xavfini sezmay, o‘z ovozidan zavqlanib sayrayotgan bedanalarga quloq solish bilan band edi, u bu daqiqaning iloji boricha cho‘zilishini istardi.

- Kech bo‘lib ketadi. Orqadan odam o‘tib qolishi mumkin, - dedi Obid aka, lekin joyidan

qo‘zga‘almadi. Bedanalarning xori tinganday bo‘ldi. U yer b u yerdagina siyrak eshitilib qolardi.

- Endi boshlaymiz!” [3.18.]

Yuqoridagi parchada “o‘lim xavfini sezmay” hayotdan zavqlanayotgan bedanalarning soniyalar ichida o‘zgarib ketishi mumkin bo‘lgan taqdiri Abdullaniki bilan o‘xshashdek go‘yo. Yigit ham o‘ta yengil ko‘tarila olaman deb o‘ylagan hayot zinapoyalarida bir-bir qoqiladi. Bir-ikki oyog‘i toyiganda ahamiyat bermasdan vijdoni va qalbiga qarshi borgan holda davom etadi va asar so‘ngida Gulchehraning vafoti ortidan kelgan so‘ngsiz pushaymonlik girdobida qoladi. Yozuvchi romanning yuqoridagi kabi nuqtalarida kelgusi voqealarning nechog‘lik fojeviy ekanligiga urg‘u berib ketdi. “Odam bo‘lish qiyin” romanini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilsak ham, inson tafakkuridagi ziddiyatlarni, o‘zlikni anglash yo‘lidagi murakkab hayot qirralarini badiiy tadbiq etganligidan dalolat beradi. Shu jihatdan roman bugungi kunda ham badiiy qiymatini yo‘qotgan emas, -degan xulosaga kelishimiz mumkin. Asardagi voqealar silsilasi qaysi davrni aks ettirishidan qat’iy nazar, roman inson qismatini, uning murakkab va ziddiyatli hayot taraqqiyotidagi o‘rnini ko‘rsatib bera olganligi bilan alohida ajralib turadi” [4.27].

Xulosa qilib aytganda, “Odam bo‘lish qiyin” romanida xarakter yaratish masalasi muallif badiiy mahoratining muhim jihatlaridan biridir. Asarda inson xarakterining murakkab tabiati psixologik tasvir va badiiy vositalar yordamida muvaffaqiyatli yoritilgan. Bundan shuni anglash mumkinki, O‘lmas Umarbekov chin ma’noda iste’dodli yozuvchi sifatida o‘zbek romanchiligida o‘z izi va imzosini qoldira olgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘lmas Umarbekov,Tanlangan asarlar I jild, Sharq, 2002, 5-bet
2. O‘LMAS UMARBEKOV HIKOYALARIDA OBRAZLAR TABIATINING POETIK XUSUSIYATLARI. Bahromova Sorogul Maxmudjonovna Buxoro davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi. Zamonaviy ilm-fan va t’lim istiqbollari. Ilmiy-amaliy konfrensiya. Fevral, 2025-yil. 228-bet.
3. Olmas Umarbekov, «Odam bo‘lish qiyin». «Yangi asr avlodi», 2015. 18-bet.
4. O‘LMAS UMARBEKOVROMANLARIDA MUHIT VA XARAKTER TALQINI. BMI. ROZIQOV FOZIL QUDRATOVICH ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI. SAMARQAND – 2015.